
O`QUVCHILARNING HUQUQIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA TARBIYA FANINING AHAMIYATI

Yuldashev Mo'minjon Rustam o'g'li

Xorazm viloyati Urganch tumani

47-son IDUM maktabi

Davlat va huquq asoslari fani o`qituvchisi

Meyliyev Dadaxon Pirnapasovich

Xorazm viloyati Urganch tumani

47-son IDUM maktabi

Tarbiya fani o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o`quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirishda tarbiya fanining ahamiyati haqida so`z yuritilgan. Hozirgi globalashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida o`quvchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targ'ibotning ilg'or va ta'sirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan foydalanilmoqda.

Kalit so`zlar: huquqiy savodxonlik, tarbiya fani, ta`lim, tarbiya, madaniyat, huquqiy bilim, qonuniylik, innovatsiya.

Абстракт. В данной статье говорится о значении образования в повышении правовой грамотности учащихся. В современную эпоху глобализации, научно-технического развития используются инновационные методы повышения правосознания и правовой культуры студенческой молодежи, передовые и эффективные средства пропаганды, положительный опыт зарубежных стран в этом отношении.

Ключевые слова: правовая грамотность, педагогическая наука, образование, обучение, культура, правовые знания, законность, новаторство.

Abstract. This article talks about the importance of education in improving the legal literacy of students. In the current era of globalization, scientific and technical development, innovative methods of raising the legal consciousness and

legal culture of students, advanced and effective means of propaganda and positive experiences of foreign countries in this regard are used.

Key words: legal literacy, educational science, education, training, culture, legal knowledge, legality, innovation.

O'zbekiston Respublikasi o'z Mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab yosh avlodning barkamolligi, mustaqil fikrli va mas'uliyatli bo'lishi hamda milliy istiqlolni qadrlash, milliy qadriyatlarga chuqur hurmat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, jismonan va ma'nan sog'lom bo'lishi uchun bir qator tizimli ishlarni amalga oshirdi. Shu bilan birga, ularning haq-huquqlari, qonuniy manfaatlarining himoyasini ta'minlash maqsadida huquqiy asoslar ham yaratildi.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, o'quvchining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.

Xususan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan.

Yoshlarning huquqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarga nisbatan huquqiy immunitetni shakllantirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq

qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik hissini uygʻotish ishiga kompleks tarzda yondashilmadi.

Oʻquvchining huquqiy bilimlarini oshirishga doir vazifalarning umumiy tusda belgilanganligi hamda ularni amalga oshirishning aniq taʼsirchan mexanizmi mavjud emasligi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi ishlarning samarasiz olib borilayotganligini koʻrsatadi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari oʻrtasidagi muvozanatni saqlash gʻoyalarini oʻquvchi ongiga singdirish ishlarining yetarli olib borilmasligi ham qonun ustuvorligini taʼminlashga oʻzining jiddiy salbiy taʼsirini koʻrsatmoqda.

Oʻquvchining huquqiy bilimlari yetarli emasligi, shuningdek, davlat organlarining qonunga xilof qarorlari ustidan sudga shikoyat qilish imkoniyatidan deyarli foydalanmasligi mansabdor shaxslar tomonidan fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari kamsitilishi holatlarining vujudga kelishiga sabab boʻlmoqda.

Bundan tashqari, hozirgi globallashuv, ilmiy-texnik taraqqiyot davrida oʻquvchining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishning innovatsion usullaridan, targʻibotning ilgʻor va taʼsirchan vositalaridan, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalaridan yetarli darajada foydalanilmayapti.

Yoshlar orasida huquqiy savodxonlikning pastligi nafaqat, ularning oʻzlari uchun, balki jamiyat va davlat uchun ham zararlidir. Huquqiy savodxonlikning yetarli emasligi yoshlarning oʻz huquqlaridan toʻlaqonli foydalana olmasliklariga, majburiyatlaridan bexabar qolishlariga sabab boʻladi. Majburiyatlardan bexabarlik yoki harakatlarining huquqiy oqibatini anglamaslik bugungi kunda yoshlar orasida huquqbuzarliklarning sodir boʻlishiga sabab boʻlmoqda. Biz huquqiy-demokratik davlat qurishni oldimizga maqsad qilgan ekanmiz, buning uchun huquqiy ongi va madaniyati yuksak yoshlar hal qiluvchi rol oʻynaydi. Bunga esa huquqiy savodxonlikni oshiribgina erishishimiz mumkin. Qisqasini aytganda, faqat chuqur oʻylangan va tezkor davlat

siyosatigina yoshlarning huquqiy madaniyatini ko'tara oladi va ularning huquqiy ongi darajasini yuksaltirishga yordam beradi.

Huquqiy madaniyat uchun huquqiy ong zaruriy element ekanligini hisobga olgan holda shuni e'tirof etish kerakki, huquqiy ong bo'lishi uchun avvalo huquqiy savodxonlik juda zarurdir. Huquqiy savodxonlik fazilati shaxs – jamiyat – davlat munosabatlariga muhim ta'sir ko'rsatadi, hayotda mehnat faoliyatida yoki boshqa bir sohada yuzaga keladigan muammolarni adolatli va xolis hal qilish imkonini beradi. Yuridik adabiyotlarda huquqiy savodxonlik tushunchasiga yakdil ta'rif berilmagan bo'lsa-da, ulardan quyidagicha tushuncha hosil qilish mumkin: huquqiy savodxonlik – bu yuridik matnlardagi atamalarni tushunish, ulardan umumiy xulosalar chiqarish va bu bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobilayati. Xorijiy yuridik adabiyotlar ham shunga yaqin mazmuni ifodalaydi, ya'ni shaxsning o'z huquq va majburiyatlarini tanishi, qaysi holatlar yuridik nizo ekanligini bilishi va ularga qonuniy yechim topa olishi, huquqiy axborotni qayerdan topishni, yuridik yordamni qayerdan va qanday qilib olishni, qonunchilik tizimida qaysi choralar borligini hamda protsessual tartibni bilishi huquqiy savodxonlik belgilari hisoblanadi.

Yangi qabul qilinayotgan qonunlarning yoshlar hayotiga ta'siri katta, albatta. Ularning bu qonunlar haqida axborot olishlari, undagi normalarga tushuntirishlar talab qilish huquqi ham qonunan mustahkamlangan[7].

Bu borada olib borilayotgan islohotlarning yanada samarali bo'lishi ko'p jihatdan chuqur o'ylanganligi va tizimlilikiga bog'liqdir. Shuni e'tiborga olgan holda biz yoshlar orasida huquqiy savodxonlikni oshirish masalasi bo'yicha bir qancha takliflarni bildirmoqchimiz.

•Avvalo, shunga e'tibor qaratish kerakki, yetarli huquqiy ta'lim-tarbiyagina huquqiy savodxonlikka olib boradi. Shu boisdan, pedagogika oliygohlarida "huquqshunoslik pedagogikasi" fakultetlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lar edi. O'z navbatida esa, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim

muassasalarida “Huquqshunoslik” fani dars soatlarini optimal darajada ko’paytirish ham lozim. “Huquqshunoslik” faniga ixtisoslashtirilgan sinflarning bo’lishi ham foydali bo’ladi.

•Huquqiy ta’lim-tarbiyani maktabgacha ta’lim muassasasidan boshlash samarali bo’ladi, degan fikrdamiz. Zero, bu yoshdan boshlab bolalarga konstitutsiya, qonun, fuqarolik, huquq, majburiyat kabi tushunchalarni singdirish lozim. Huquqiy ta’limning bunday izchilligi shunisi bilan ahamiyatliki, bunda doimiy auditoriya mavjud bo’lib, huquqiy savodxonlikka erishishning tadrijiyligi ta’minlanadi.

•Shu qatorda, yoshlarning huquqiy ta’lim-tarbiyasini rivojlantirishning hududiy dasturlarini yaratish davri keldi, deb hisoblaymiz. Viloyat va tumanlar miqyosidagi, o’ziga xos dasturlarning bo’lishi yoshlar orasida huquqiy savodxonlik ko’lamining oshishiga olib keladi, degan fikrdamiz. Masalan, “Yosh huquqshunos” nomli tuman hokimi mukofoti, “Konstitutsiya bilimdonlari” nomli viloyat hokimi kubogi kabi yangicha tadbirlar yoshlar orasida huquqiy bilimlarga qiziqishning yanada oshishiga olib kelishi mumkin.

•Keyingi taklifimiz shundan iboratki, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga “davlat – ota-ona – maktab – huquqni muhofaza qiluvchi organlar” tizimini joriy qilish lozim. Bunda davlat joylarda shart-sharoit yaratib bersa, o’quv muassalari tadbirlarni tashkillashtiradi va ota-onalar bolalarni jalb qilishadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning xodimlari esa tizimli tarzda yoshlarni o’z huquqlarini himoya qilishda kerak bo’ladigan huquqiy bilimlar bilan tanishtirib boradilar. Bu tadbirlar suhbat, munozara, taqdimotlar, filmlar namoyish qilish kabi ko’rinishlarda o’tkazilishi mumkin.

Tarbiya fani O`zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o`rta ta`lim muassasalarida 2020-2021-o`quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma`naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o`quvchilarda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g`oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi,

mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo'yan. Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, BAA, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanildi. Ta'lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo'lganligi uchun ta'lim samaradorligi pedagog va o'quvchi faolliligiga, ta'lim vositalarining mavjudligiga, ta'lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog'liq.

Ta'lim-tarbiya jarayonini ilg'or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o'qituvchi tomonidan yaratiladi, ta'lim-tarbiya bosqichlarini o'zaro bog'lashga xizmat qiladi. Uning mazmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta'lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o'quvchida shakllantirish ko'zda tutilgan ma'naviy sifatlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o'zining ma'lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo'lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi. Ta'lim-tarbiya jarayonining unumdorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o'rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo'lgan asosiy talablardan biri edi. Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o'tkir fikrlaydigan

kishilar to`g`risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o`tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo`r istidodga ega; yomon ishlardan o`zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar». Uning fikricha, «Ta'lim so`z va o`rgatish bilangina bo`ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o`rganishdir, ya'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo`lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo`lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo`lsalar, kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasbhunarning chinakam oshig`i bo`ladilar».

Tarbiya jarayoni o`zaro bog`liq ikki faoliyatni - o`qituvchi va o`quvchi faoliyatini o`z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o`quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg`ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g`oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o`quvchida jamiyatning shaxsga qo`yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o`quvchining ongiga (ta`lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta`sir etib boriladi. Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e`tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

A) O`quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo`qotish maqsadida rejalashtiriladi.

B) Shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo`qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

V) Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim - tarbiya tizimi jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlardagi yuqori huquqiy savodxonlik demokratik-huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu qatorda, bugungi islohotlarning mohiyatini tushunishda, ularni amalga oshirishda yoshlarning yanada faol ishtirokini ta'minlaydi. Bu darajaga esa tizimli va doimiy huquqiy tarbiya orqali erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saburov N., Saydullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi / O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYI, 2011. 74-bet.
2. Amirov Z. “Huquqiy xabardorlikni oshirish huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish vositasi sifatida” // Jamiyat va boshqaruv –2015. №3
3. Forobiy. «Fozil odamlar shahri». - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi. nashriyoti, 1993. 182-b.